



## JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



## JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - MAY  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-may oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7270,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 97,2 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 9,2 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 10,0 % ga o'sishi kuzatildi.

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati**



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,7 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



## 2023-yil yanvar-may

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	8 328,4	6 147,5	-2 180,9
Sharof Rashidov tumani	2 897,4	5 179,8	2 282,4
Forish tumani	3 364,7	1 859,4	-1 505,3
Jizzax shahri	27 332,8	31 468,5	4 135,7
Zafarobod tumani	5 128,9	3 035,3	- 2 093,5

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 64,0 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 10,5 % ni va G‘allaorol tumani 12,5 % ni tashkil etdi.

30,7 %

2022- yil

45,4 %

2023- yil


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-may

FHI,% da



2023- yilning yanvar-may oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7 073,0 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,3 % ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar-may

94,2 %

2023-yil yanvar-may

97,3 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % (0,0 %) o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 49,4 % (23,6 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali 15,0 % (19,0 %) va quyi texnologiyalisi - 32,9 % ( 51,6 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 47,2 % ( 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 52,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,7 % ( 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 156,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,1 % ( 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,5 % ( 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,5 % ( 2022- yilning yanvar –may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 153,9 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti



O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	14 584,4	14 910,1	325,7
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	29 361,7	6 146,7	-23 215
Paxta chigiti, t.	23 150,4	22 320,5	- 829,9
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	4 258,3	3 042,5	-1215,8
Paxta linti, t.	1 089,7	1 339,7	250
Trikotaj polotnolar, t.	718,0	1 226,0	508

2023- yilning yanvar-may oylar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 6,1 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 70,1 % kamaygan), 14,9 ming tonna paxta tolasi ( 2,2 % ga oshgan), 22,3 ming tonna paxta chigiti (4,9 % ga ) kamaygani kuzatildi.

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**

**20,9 %**


**Paxta tolasi, t.**

**102,2 %**


*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 83,9 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-may oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,7 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 156,6 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 52,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 115,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 134,0 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 799,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 125,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 101,5 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 539,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 93,0 % ni tashkil etgan. 2023- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 91,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 122,8 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 105,9 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 298,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 88,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 %, fizik hajm indeksi 158,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 304,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 151,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi 133,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 211,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 78,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi 236,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 238,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 84,2 % ga oshgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 182,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 190,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 110,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,5 % ini) tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 27,3 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	100 028,1	71 314,1	-28 714
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	35 106,6	38 879,5	3 772,9

## 2023-yil yanvar-may

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish**

*Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.*


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-may	2023- yil yanvar-may	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	27 890,6	31 545,6	3 655
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	9 507,7	6 419,6	-3 088,1

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 9,4 % ga, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 12,0 % ga o'sishi kuzatildi.*

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 152,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 186,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 57,1 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil  
yanvar-may

24,0%

2023-yil  
yanvar-may

11,7%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil  
yanvar-may

76,0%

2023-yil  
yanvar-may

88,3%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 11,7 % (2022- yil yanvar-may oylarida 24,0 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 27,0 % ni va Zarbdor tumani 8,5 % ni, Zomin tumani 10,3 % ni hamda Paxtakor tumani 22,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumanida (163,6 %), G'allaorol tumanida (151,3 %) hamda Zafarobod tumanida (142,3 %), qayd etildi.

## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2751 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 744 tasi ( faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 27,0 % i ) Jizzax shahriga, 370 tasi (13,4 %) Sharof Rashidov tumaniga, 331 tasi ( 12,0 %) G'allaorol tumaniga, 250 tasi ( 9,1 %) Zomin tumaniga va 183 tasi (6,7 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



### Jami yangi tashkil etilgan

2021-yil  
433 dona

2022- yil  
427 dona

2023- yil  
337 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

2021- yil  
3 656 dona

2022- yil  
3 844 dona

2023- yil  
2 751 dona